




# QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ XO'JALIGI


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2019 yilning yanvar-mart oylarida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 1060,4 mlrd.so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 102,5 foizni, shu jumladan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarida ko'rsatilgan xizmatlar 970,3 mlrd.so'mni (102,4 foiz), o'rmon xo'jaligida 72,3 mlrd.so'mni, (102,0 foiz), baliq xo'jaligida 17,8 mlrd. so'mni (116,0 foiz) tashkil qildi.

## Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi



Xususan yuqori o'sish sur'atlari Karmana (103,8 foiz), Xatirchi (102,9 foiz), Qiziltepa (102,8 foiz), Konimex (102,6 foiz), Tomdi (102,5 foiz), Nurota (102,4 foiz), Navbahor (102,1 foiz), Zarafshon shahri (102,1 foiz) hamda Uchquduq (101,6 foiz) tumanlarida kuzatildi, Navoiy shahrida esa (101,0 foiz) aksincha past sur'atlar kuzatildi.

## Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmatlar)lar hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi




Viloyatning qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot(xizmat)larining umumiy hajmida Konimex tumanining ulushi (22,0 foizni) tashkil etdi va hududlar bo'yicha etakchilik qilmoqda, xuddi shunday, Tomdi tumani (17,5 foiz), Navbahor tumani (14,6 foiz), Uchquduq tumani (11,4 foiz), Xatirchi tumani (9,4 foiz), Qiziltepa tumani (8,6 foiz), Karmana (8,4 foiz), Nurota (7,0 foiz), ko'rsatkich bilan keyingi o'rinlarni egalladi. Eng kam ulush Navoiy va Zarafshon shaharlarida (1,0 va 0,1 foiz) qayd etildi.

### Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2019 yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining o'sishi 2018 yilning mos davriga nisbatan 103 foizni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 102,4 foizni, chorvachilik mahsulotlari 103,1 foizni tashkil qildi.

## Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlar umumiy hajmining 85,7 foizi -dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 8,3 foizi -fermer xo'jaliklariga, 6,0 foizi-qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining ulushi xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkichlar barcha hududlarda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.



### Dehqonchilik

2019 yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 50,5 mlrd.so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 102,4 foizni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 5,2 fozni tashkil qildi.



**Hosilni yig'ib olish.** 2019 yilning yanvar –mart oylarida 2,4 ming tonna (105,2 foiz), sabzavotlar, 0,1 ming tonna (104,4 foiz) mevalar, yig'ib olindi.

## Asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda xo'jalik toifalarining ulushi




## Chorvachilik



2019 yilning yanvar-mart oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 917,8 mlrd.so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 103,1 foizni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 94,8 foizni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 26,2 ming tonna go'sht (2018 yilning yanvar-mart oyiga nisbatan 4,0 foizga ko'p), 75,7 ming tonna sut (1,5 foizga ko'p), 71,1 mln.dona tuxum (4,3 foizga ko'p), 154,4 ming dona qorako'l teri (1,2 foizga ko'p).



### Asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda xo'jalik toifalarining ulushi





Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, tirik vaznda go'shtning umumiy hajmidan 89,4 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim, shuningdek sutning 93,1 foizi,

tuxumning 63,3 foizi, qorako'l terining 92,3 foizi, ham dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keladi.

### Ishlab chiqarilgan asosiy turdagi chorvachilik va baliqchilik mahsulotlarini hududlar kesimida taqsimlanishi



**Qorako'l teri (ming dona)****Baliq (tonna)**


### **Yirik shoxli qoramollar va parrandalar bosh soni**

2019 yilning 1 aprel holatiga yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni - 474,6 ming boshga, shu jumladan sigirlar 194,1 ming boshga, qo'y va echkilar 2095,1 ming boshga, otlar 17,3 ming boshga, parrandalar 3049,9 ming boshga yetdi.

2018 yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 34,7 ming boshga (7,9 foizga), shu jumladan sigirlar 17,9 ming boshga (10,2 foizga), qo'y va echkilar 109,2 ming boshga (5,5 foizga), otlar 1,0 ming boshga (6,4 foizga), parrandalar 811,6 ming boshga (36,3 foizga) ko'paydi.



## Xo'jalik toifalarining chorva mollari va parrandalar bosh sonidagi ulushi



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2019 yilning 1 aprel holatiga yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 7,1 foizi fermer xo'jaliklari hissasiga, 90,8 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 2,1 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 23,4 foizi fermer xo'jaliklariga, 64,1 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 12,5 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, otlar umumiy sonidan 33,6 foizi fermer xo'jaliklariga, 60,3 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 6,1 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, xuddi shuningdek parrandalar umumiy sonidan 8,6 foizi fermer xo'jaliklariga, 74,2 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 17,2 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.

Qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'limi

0 371 230-84-43

0 371 230-84-44

0 436 223-23-40



